



The University of World Economy and Diplomacy

Institute for Advanced
International Studies

AQShdagi prezident saylovoldi kampaniyalarning olib borilishi to'g'risida

Amerikani o'rganish markazi:
Ulug'bek Ishanxodjayev
Shaxzoda Jumaniyazova
Fazliddin Djamalov

2024-yil boshlanganidan beri AQShda Demokratik va Respublikachi partiyalardan prezidentlikka nomzodlar bellashayotgan "primaries" deb ataluvchi boshlang'ich saylovlar o'tkazilmoqda. Ovoz berish natijalariga ko'ra, nomzodlar delegatlarning qo'llab-quvvatlashini olib, so'ng yozda har ikki partiyaning syezdlarida o'zlarining yagona nomzodlarini rasmiy nominatsiya qilish uchun ovoz berishadi. Demokratik partiya nomzodi kamida [1968 ta \(jami 3934 tadan\)](#) delegatlar ovozini, Respublikachi partiya nomzodi esa [1215 ta \(jami 2429 tadan\)](#) ovozni to'plashi kerak.

"Primaries" dan so'ng 20 dan ortiq shtatlarda har ikkala partiyada asosiy da'vogarlarning aniq ustunligi belgilandi: Donald Tramp [1247](#), Jo Bayden esa o'z partiyalari nomidan nomzodlik uchun [2099 delegatlar](#) ovozini to'plagan. Ikkala da'vogar ham kerakli miqdordagi delegatlar ovozlarini to'plab va yagona nomzod maqomini qo'lga kiritishdi, va yozgi partiya syezdlarini rasmiyatchilikka aylantirdi. Shu tariqa, joriy yilning 5-noyabrda bo'lib o'tadigan saylovlar [1912-yildan](#) beri birinchi marta sobiq prezident amaldagi prezidentga qarshi chiqadigan revanshga aylanishi mumkin.

O'tgan "primaries" jarayoni, Bayden va Trampning o'z partiyadoshlari ustidan sezilarli ustunligi borligiga qaramay, bu saylovlarda uchta katta aniqliksizlikni vujudga keltirdi.

1) Ikki asosiy partiyalarning ustunligi mustaqil nomzodlarning paydo bo'lishi bilan shubha ostiga olinmoqda, ular "aniqlanmagan", yani odatda oxirgi daqiqada shaxsiy afzalliklarga asoslanib qaror qiladigan saylovchilarning bir qismi o'z foydasiga jalb eta olish imkoniyatiga ega. Jamiyatda ikkala partiya ham milliy manfaatlarning ustuvorligi masalasida kompromisga erishishdan ko'ra, saylovlarda g'alaba qozonish orqali hokimiyatga erishishni yagona maqsad qilgan degan fikr kuchaymoqda. Partiyalar siyosiy platformalarining qarama-qarshiligi va murosasizligi an'anaviy ravishda ularning birini qo'llab-quvvatlagan ba'zi saylovchilarni umidsizlikka olib kelmoqda va ularni "mustaqil", "uchinchi kuch" da alternativani qidiruvchi "mustaqillar" ga aylantirmoqda. Masalan, "Uncommitted" ("aniqlanmaganlar") harakati Baydenni G'azo sektorida Isroilning siyosatini qo'llab-quvvatlagani uchun tanqid qiladi, bu esa u o'z partiyasida zaifligini ko'rsatadi. O'z navbatida, mo'tadil respublikachilarni Trampning populistik chaqiriqlari cho'chitadi, ularni haddan tashqari radikal deb topishadi.

Bu tendentsiyalar chap qanot konservatorlar va o'ng qanot liberalarining markazparast pozitsiyalarga oqib ketishiga va

"aniqlanmaganlar" sonining o'sishiga olib kelmoqda. So'nggi jamoatchilik so'rovlari bo'yicha, agar bugungi kunda har ikkala partiyani qo'llab-quvvatlovchilarning soni umumiy saylovchilar sonining taxminan 30% ni tashkil etsa, "aniqlanmaganlar" soni 40% ga yetdi. Shu bois, ushbu guruh ovozlari respublikachilar va demokratlar o'rtasida kurashga sazovor bo'lib, ularni va mustaqil nomzodlarni raqobatbardoshligini oshirdi. Hozirgi prezidentlik poygasida bu rolni bir nechta mustaqil nomzodlar o'z zimmasiga oldi. Xususan, Robert Kennedi-kichikka saylovchilarning taxminan [14%](#) i qo'llab-quvvatlov bildiradi, ularning aksariyati uning paydo bo'lishidan oldin Bayden uchun va kamroq darajada Tramp uchun ovoz berishni rejalashtirgan edi.

Biroq, AQSh oliy lavozimiga "uchinchi" da'vogarlar orasida eng katta qiziqishni Shimoliy Karolina shtatining sobiq gubernatori-republikachi Nikki Xeyli uyg'otmoqda. U joriy yilning 7-martida o'z saylovoldi kampaniyasini to'xtatib turishini e'lon qilgan bo'lsa-da, Xeyli Trampga ikki shtatda mag'lubiyat yetkazib, respublikachilar tarixidagi prezidentlik "primaries"ini yutgan birinchi ayol bo'ldi. U o'z tarafdorlarini Tramp uchun ovoz berishga chaqirmasdan, faqat unga qo'shimcha ovoz yig'ishini tiladi. O'z navbatida, Tramp Nikki Xeylining tarafdorlarini istamasligini ["mening kampaniyamda ular uchun joy yo'q"](#) deb ma'lum qildi. Ekspertlar jamoasi Xeyli ta'sirli saylovoldi kampaniyasini o'tkazgani va ko'pchilik kutganidan ham yaxshiroq uddalaganini, uning haqiqiy xarizmasi va debatlarida o'zini himoya qila olish qobiliyati borligida bir fikrga kelishdi. Shuningdek, iqtisodiyot va tashqi siyosat masalalarida uning yuqori malakasi borligi ta'kidlandi. Vaholanki, agar Oliy sud Trampni saylovlarga qo'yishni taqiqlasa, respublikachilar favqulodda nomzodi sifatida yoki "aniqlanmaganlar" qollab quvatlaydigan, shuningdek Tramp yoki Baydenga qoniqmaydigan ba'zi respublikachilar va demokratlarni jalb etishi mumkin bo'lgan mustaqil nomzod sifatida Xeyli poygaga qaytishi ehtimoli mavjud. Xeylining kampaniyani davom ettirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega ekanligi uning katta afzalligi hisoblanadi. Ba'zi konservativ respublikachilarning nazarida uning zaif tomonlari jinsi va etnik kelib chiqishi (hindistonlik) bo'lsa-da, bu xususiyatlar ba'zi demokratlar uchun jozibali bo'lishi mumkin.

2) Trampga oid sud jarayonlari yana bir aniqsizlik darajasini oshiradi. Hozirgi kunda Tramp fuqarolik ishlari bo'yicha [500 million](#) dollardan ortiq zarar ko'rayotgan bo'lsa-da, xabar qilinishicha, uning qo'lida faqat taxminan [413 million](#) dollar miqdorida likvid aktivlari mavjud. Ushbu summa uning huquqiy jarimalar bo'yicha qarzdorliklarini qoplash uchun aniq yetarli emas, shuning uchun Tramp qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini izlamoqda, bu haqda yaqinda dunyoning eng boy odami Ilon Mask bilan bo'lgan uchrashuvida va Rossiyada biznes yurituvchi Chubb kompaniyasi bilan

aloqalari davomida mulohaza bo'lgani tahmin qilinadi. Bu munosabat bilan, FBI (*Federal Tergov Byurosi*) bosh yuriskonsulti Endryu Vaysmann shunday degan: "Bir narsa aniq: Tramp kimnidir katta pul bilan qarzdor va jamoatchilik saylov kunidan oldin bu ma'lumotni bilishi shart". Ammo Trampning noyabr saylovida ishtirok etish da'volari uchun asosiy jarayon [25-aprelga](#) belgilangan AQSh Oliy sudining prezidentning mutlaq imuniteti haqidagi Trampning da'vosini ko'rib chiqish bo'ladi. Sud qaroridan 2021-yil [6-yanvardagi](#) Kongressdagi tartibsizliklarga tergov tomonidan davlat to'ntarishiga Trampning aloqadorligi bo'yicha to'xtatilgan ishning qayta faollashtirilishi bilan bog'liq. Ta'kidlash joizki, joriy yilning fevralida Tramp Kolorado shtatiga qarshi ishda g'alaba qozondi, bu shtat uni mahalliy saylov byulletenlariga kiritishni taqiqlagan edi: AQSh Oliy Sudi bir ovozdan shtatlar federal lavozimlarga nomzodlarni chetlashtirish va ularni isyon sodir etishda ayblash Kongressning mutlaq vakolati borligini tasdiqladi.

3) Har ikkala nomzod ham yoshi va sog'lig'i bilan bog'liq bo'lgan muammolarga duch kelmoqda. Bu muammo Baydenda yanada aniqroq ko'rinib turibdi, hatto AQSh Adliya Vazirligi ham buni rasman tan oldi, ammo bu uning reytingiga keskin ta'sir ko'rsatmadi. Baydenda muammo faqat yosh bilan bog'liq emas: faqat [38% saylovchilar](#) uni o'z ishini yaxshi bajara olayotgani haqida fikr bildirishgan, bu ikkinchi muddatga borayotgan prezidentlarning tarixiy eng past o'rtacha reytingi hisoblanadi. Ba'zi demokratlar uning nomzodini saylovlardan olib tashlab, Mishel Obama, vitse-prezident Kamala Harris yoki Kaliforniya gubernatori Gevin Nyusom nomzod qilishni taklif kiritishdi. Biroq, "primaries" natijalari va Baydennning Kongress oldida ko'tarinki ruhdagi murojaati boshqa partiyadoshlari oldida uning ustunligini tasdiqladi. Demokratlarning quyi palatadagi yetakchisi Hakim Jeffries Baydenni "aniq bizning eng kuchli nomzodimiz" deb atadi va Trampni "Putinning odami" deb ta'rifladi. Demokratlar Oliy sudning ishlarini ko'rib chiqish natijasida Trampning saylovlardan chetlatilishiga ba'zi umidlarni bog'lashmoqda: so'rovlar bo'yicha [24%](#) respublikachilar Tramp aybdor deb topilsa, unga ovoz bermasliklarini bildirishgan.

Tramp ham behuda xatolarga yo'l qo'ymoqda: masalan, jamoat nutqida Vengriya bosh vazirini Turkiya prezidenti deb atadi. Biroq, Tramp Respublikachilar partiyasini nazorat ostiga oldi, aslida uning avvalgi yetakchilarini yengib, ularni o'z tarafdorlarining mini-fraksiyasi bilan almashtirib, partiyani parchalanishiga olib keldi va Kongress ishini falajladi. Xususan, Trampning o'g'li "Eski Respublikachilar partiyasi Kongressdagi qismi mavjud emas va uni 'Amerikani yana buyuk qilamiz' ([MAGA](#)) harakati almashtirdi" dedi. Tramp foydasiga o'rtacha so'rov natijalarida 7 ta doimo teng kurash o'tadigan "ikkilanib turgan" shtatlarda u Baydendan biroz oldinda. Shuningdek, 2020-yilda unga ovoz berganlarining 97% Trampni qo'llab-

quvvatlashga tayyor, va uning avvalgi tarafdorlarining deyarli hech biri Bayden saflariga o'tmagan. Baydenga avvalgi saylovchilarning faqat 83% ovoz berishga tayyor, ularning 10% endi Trampni qo'llab-quvvatlashlarini tan oldi.

Shunday qilib, 2024-yilgi saylovlar "uchinchi" tomonlarning ta'siri, Trampning sud jarayonlari va nomzodlarning keksayishi bilan bog'liq aniqlik tufayli bir qarashda tuyulishidan ko'ra ularning natijalarini oldindan aytib bo'lmaydigan qiladi: so'nggi so'rovlar hozirda Trampni [42%](#), Baydenni esa [40%](#) respondentlar qo'llab-quvvatlayotganini ko'rsatmoqda. Ushbu saylovlar demokratlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan globalizm va liberal qadriyatlar hamda respublikachilar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan izolyatsionizm va konservativ qadriyatlar o'rtasidagi keskin raqobatni aks ettiradi. Bu kurash Rossiya va Xitoyning Amerika yetakchiligiga xorijda qo'ygan chaqiriqlari, millatchilikning o'sishi va liberal jahon tartibining parchalanishi fonida sodir bo'lmoqda hamda bu Ikkinchi jahon urushi keyingi dunyo tartibining asoslarini buzishi mumkin: bu asoslar barcha urushdan keyingi AQSh prezidentlari tomonidan qabul qilingan, Tramp esa uni rad etgan. Shunday bir voqealar rivojidan qochish maqsadida, AQSh Kongressi 2023-yil [14-dekabrda](#) prezidentga NATOdan bir tomonlama chiqishni taqiqlaydigan ikki partiyaviy qonunni ma'qulladi. Hujjat faqat Tramp qayta Oq uyga qaytgan taqdirda uning qo'lini bog'lash maqsadida qabul qilingan. Ekspertlar ta'kidlashlaricha, agar Tramp qayta Oq uyga kelsa, u darhol impeachment kampaniyalari va Senat bilan ziddiyat tufayli falajlanadi. Trampni NATOni cheklash va AQShning Yevropadagi shayligini to'xtatish bo'yicha qarorlari Vashington amaldorlari va global TMKlar tomonidan to'xtatilishiga olib keladi.